



International documents on protecting children from violence and their analysis

Dilshod ISRAILOV¹

Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2025

Received in revised form

15 July 2025

Accepted 15 July 2025

Available online

25 August 2025

Keywords:

Children,
UN,
violence,
protection,
international,
documents,
standards,
convention,
recommendations,
human rights.

ABSTRACT

This article examines international documents on the protection of children from violence and issues related to their analysis. The article also analyzes international documents in this area.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss4-pp156-162>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Bolalarni zo‘ravonliklardan himoya qilishga doir xalqaro hujjatlar va ularning tahlili

ANNOTATSIYA

Kalit so‘zlar:

Bolalar,
BMT,
zo‘ravonlik,
himoya qilish,
xalqaro,
hujjatlar,
standartlar,
konvensiya,
tavsiyalar,
inson huquqlari.

Mazkur maqolada bolalarni zo‘ravonliklardan himoya qilishga doir xalqaro hujjatlar va ularning tahlili bilan bog‘liq masalalar o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada bu boradagi xalqaro hujjatlar tahlil etilgan.

¹ PhD, Associate Professor, Deputy Director, Supreme School Judges with the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan. E-mail: dilshod.israilov191063@gmail.com

Международные документы по защите детей от насилия и их анализ

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Дети,
ООН,
насилие,
защита,
международный,
документы,
стандарты,
конвенция,
рекомендации,
права человека.

В данной статье рассматриваются международные документы по защите детей от насилия и вопросы, связанные с их анализом. В статье также анализируются международные документы в этой области.

Hozirgi zamonda inson huquqlari muhim o'rin tutadi. Har qanday rivojlangan demokratik jamiyat qurishda ularning rolini oshirib yubormaslik lozim.

Bizning fikrimizcha, huquqiy davlat qurilishidagi asosiy shartlardan biri bu jamiyatda inson huquqlari va erkinliklarini kengaytirish hamda himoya qilish hisoblanadi. Unchalik uzoq bo'lmagan o'tmishda ham inson huquqlari faqatgina ichki davlat organlari doirasida tartibga solingan. Har bir davlat o'z yurisdiksiyasida bo'lgan fuqaro va shaxslarning huquq va erkinliklari hajmini faqat o'zlarigina hal qilish huquqiga ega deb hisoblar edilar.

Hattoki, BMT tashkil qilingan ilk kunlarda ham davlat ichki organlari bu sohadagi asosiy manbalar hisoblanar edi. Umuman huquqni, ayniqsa inson huquqlarini u yoki bu jamiyatda hukmronlik qilayotgan mafkura, siyosat va axloqiy madaniyatdan ajratib o'rganish mumkin emas. Shuning uchun ham davlatlar mazkur sohada inson huquqlari masalasini yuqoridagi vositalar asosida tartibga solishgan hamda BMTning inson huquqlari sohasidagi standartlarini o'z ichki ishiga aralashish deb hisoblaganlar.

Inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarda shaxsni zo'ravonliklardan, shu jumladan oilada sodir etiladigan jinoiy zo'ravonliklardan himoya qilish mexanizmi mustahkamlab qo'yilgan.

Bundan tashqari, Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar bo'yicha xalqaro kelishuv hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha xalqaro kelishuv oilani jamiyat asosidagi guruh deb tan oladi 47 hamda shaxsni oiladagi zo'ravonliklardan himoya qiladi. Bolalar saodati va ularning huquqlari doimo xalqaro hamjamiyat diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan. Oldingi bobda ko'rib chiqqanimizdek, bola huquqlariga oid dastlabki hujjatlar XX asrning boshlarida, yilda Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan, Sanoatda ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi №5 Konvensiya, 1924-yilda Millatlar Ligasi tomonidan Bola huquqlari Jeneva deklaratsiyasi qabul qilingan edi.

Shu davrdan boshlab, bolalar huquqlari asosan qullik, bolalar mehnati, bolalar bilan savdo qilish va voyaga etmaganlarning pornografiyasiga qarshi choralar ko'rish bilan cheklangan bo'lsa, bola huquqlari bo'yicha xalqaro norma ijodkorlik faoliyatining rivojlanishi oqibatida, bugungi kunda bola huquqlari bo'yicha, uning barcha huquq va erkinliklarini hamda maxsus huquqlarini o'zida aks ettirgan xalqaro huquqiy hujjatlarning katta bazasi shakllangan.

Albatta, bu hujjatlar bir birini to'ldiradi, shu bilan bir qatorda, birbiridan farq qiladi va ularni har doim ham bir xil qabul qilish noto'g'ri bo'lar edi. Shuning uchun ham, xalqaro shartnomalar hisoblangan bu hujjatlarning tabiati va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda, bu shartnomalarni klassifikatsiyalash orqali o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Odatda, xalqaro shartnomalarni quyidagi mezonlar asosida klassifikatsiyalash qabul qilingan: – xalqaro hujjatlarning yuridik kuchi nuqtayi nazaridan: umumiy nomi ko'proq “konvensiya” nomi bilan ataluvchi imperativ xarakter kasb etuvchi hujjatlar va umumiy nomi “deklaratsiya”, “tavsiyanoma” kabi nomlar bilan ataluvchi tavsiyaviy xarakterdagi hujjatlar (ammo, qayd etish bolalarning huquqlarini himoya qilinishini tartibga soladigan xalqaro hujjatlar va ularning tahlili kerakki, xalqaro shartnomalarning nomlari yuqorida qayd etilgan nomlar bilan cheklanib qolmaydi);

– tartibga solinishi bo'yicha bola huquqlarining ayrim sohalariga bag'ishlangan maxsus hujjatlar va bola huquqlarining barcha sohalarini qamrab oluvchi umumiy xarakter kasb etuvchi hujjatlar;

– a'zolik masalasi bo'yicha, barcha davlatlarni qamrab olishni maqsad qilgan universal xalqaro shartnomalar hamda muayyan mintaqqa davlatlarini qamrab oluvchi mintaqaviy hujjatlar.

Quyidagi xalqaro umume'tirof e'tilgan normalar aynan bolalarning yuqorida keltirilgan muammolardan himoya qilishning normativ tizimidir: Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi 1948-yil; “Ta'lim sohasida kamsitishga qarshi kurash to'g'risi”da Konvensiya 1960-yil; “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida”gi Xalqaro Pakt 1966-yil; “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida”gi Xalqaro pakt 1966-yil; Pekin deklaratsiyasi va Xarakatlar Platformasi 1995-yil; Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya 1989-yil. 2019-yilda butun dunyoda Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning 30 yilligi nishonlandi. Konvensiya inson huquqlari bo'yicha eng keng ko'lamda ratifikatsiya qilingan xalqaro bitim bo'lib, u jahon miqyosida bolalarga nisbatan qarashlarni va munosabatlarni sezilarli darajada o'zgartirdi. Bola huquqlariga oid universal normalarni o'z ichiga qamrab oluvchi hujjatlarni ham o'z navbatida quyidagicha klassifikatsiyalash mumkin:

BMTning inson huquqlariga oid universal standartlari deb ataluvchi umumiy deklaratsiyalar va konvensiyalari:

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt kabi universal hujjatlari;

BMTning YUNESKO, XMT kabi ixtisoslashgan tashkilotlari tomonidan, mehnat sohalarida qabul qilingan hujjatlari;

– bola huquqlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan alohida ijtimoiy guruhlar (ayollar) huquqlarini tartibga soluvchi xalqaro shartnomalar;

– muayyan huquqiy munosabatlar sohasini (jinoyat huquqi, oila huquqi, fuqarolik huquqi, mehnat huquqi) qamrab oluvchi universal hujjatlar;

– BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan yuvenal yustitsiya, voyaga etmagan shaxslarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirish masalalariga oid hujjatlar;

– bola huquqlarini maxsus tartibga solishga qaratilgan deklaratsiyalar va konvensiyalar. Bola huquqlari sohasida mintaqaviy xalqaro hujjatlarni ham quyidagicha klassifikatsiyalash mumkin:

Evropa mintaqasi davlatlari hamkorligiga qaratilgan hujjatlar;
Afrika mintaqasi davlatlari hamkorligiga qaratilgan hujjatlar;
Amerika mintaqasi davlatlari hamkorligiga qaratilgan hujjatlar;

Islom xamkorlik tashkiloti doirasida qabul qilingan hujjatlar. Bola huquqlarini himoya qilishga oid mintaqaviy hujjatlar xususida fikr yuritilganda, yuqoridagi manzaradan ko'rish mumkinki, hozirgacha mavjud hujjatlar asosan Yevropa, Amerika va Afrika qit'alarigagina taalluqli, xolos.

Afsuski, bolalar huquqlarini ta'minlash murakkab va muammoli bo'lgan Osiyo mintaqasiga oid bunday hujjat hali ishlab chiqilmagan. Bu esa, bu mintaqada inson huquqlari bo'yicha mintaqaviy mexanizmning yo'qligi va bu sohada davlatlararo mintaqaviy hamkorlik juda ham sust ekanligi bilan xarakterlanadi.

Mazkur mintaqadagi aholisi musulmon bo'lgan davlatlar uchun mazkur bo'shliqni Islom xamkorlik tashkiloti doirasida qabul qilingan hujjatlar to'ldiradi. Yuqoridagi umum-nazariy fikrlardan kelib chiqqan holda voyaga yetmaganlarning viktimizatsiyasini oldini olish va bola huquqlarini kaolatlaydigan xalqaro huquqiy normalarni tahlil qilamiz.

1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 5-moddasida "Hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo'rovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerak" deb belgilangan. 1966-yilda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Paktning 7-moddasida "Hech kim azobuqubatga solinmasligi va unga nisbatan shafqatsiz, noinsoniy yoki qadr-qimmatini xo'rovchi muomala qilinmasligi yoki jazolanmasligi kerak. Jumladan, hech bir shaxs ustidan o'zining roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajriba o'tkazilishi mumkin emas"ligi, shuningdek Paktning 14-moddasi 4-bandida balog'atga yetmaganlarga nisbatan sud jarayoni shunday bo'lishi kerakki, bunda ularning yoshi va ularni qayta tarbiyalashga ko'maklashish istagi inobatga olinishi lozimligi ko'rsatib o'tilgan.

1966-yilda qabul qilingan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida Xalqaro paktning 10-moddasi 3-bandida keltirilishicha, barcha bolalar va o'smirlarga hech bir kamsitishsiz, oilaviy kelib chiqishi yoki boshqa belgilaridan qat'iy nazar, alohida himoya choralari va yordam ko'rsatilishi shart. Bolalar va o'smirlar iqtisodiy va ijtimoiy ekspluatatsiyadan himoyalangan bo'lishi kerak. Ularning mehnatini axloqi va salomatligi uchun zararli bo'lgan yoki hayot uchun xavfli sohalarda, yoki ularning normal o'sishi uchun zarar keltirishi mumkin bo'lgan sohalarda qo'llash qonun bilan jazolanishi kerak.

Bundan tashqari, davlat shunday yosh chegarasini belgilab qo'yishi kerakki, shu chegaradan quyi yoshdagi bolalar mehnatidan foydalanish ta'qiqlanishi va qonun bilan jazolanishi lozim. Bola huquqlari to'g'risida Konvensiyaning 16-moddasiga ko'ra, birorta bola uning shaxsiy hayot, oilaviy hayot, uy-joy daxlsizligi yoki pochta orqali yuboriladigan narsalarning maxfiyligiga bo'lgan huquqi amalga oshirilishiga o'zboshimchalik bilan yoki qonunga zid ravishda aralashish, yoxud uning sha'ni va obro'siga g'ayriqonuniy tajovuz qilish obyekti bo'lishi mumkin emasligi, bola ana shunday aralashishlar yoki tajovuz qilishlardan qonun yo'li bilan himoyalalanish huquqiga egaligi belgilangan.

Konvensiyaning 18-moddasida belgilanishicha, ishtirokchidavlatlar bola tarbiyalanishi va rivojlanishi uchun ota-onaning umumiy va bir xil javobgarligi tamoyili e'tirof etilishini ta'min lash uchun bor kuch-g'ayratlarni safarbar etadilar. Ota-ona yoki tegishli holatlarda qonuniy vasiylar bolaning tarbiyalanishi va rivojlanishi uchun asosiy javobgar bo'ladilar. Bolaning eng yaxshi manfaatlari ular ko'rsatadigan asosiy

g'amxo'rlikning predmeti hisoblanadi. Shuningdek mazkur moddaning 2-bandida esa bolaning eng yaxshi manfaatlarini himoya qilinishi sifatida – ushbu Konvensiyada bayon qilingan huquqlarning amalga oshirilishini kafolatlash va ko'maklashish maqsadida ishtirokchi davlatlar ota-ona va qonuniy vasiylarga bola tarbiyasi bo'yicha majburiyatlarini bajarishlariga tegishli yordam ko'rsatishlari hamda bolalar muassasalari tarmog'ining rivojlanishini ta'minlashlari keltirilgan.

Konvensiyaning 19-moddasi bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan bo'lib, moddada ishtirokchi davlatlar uchun quyidagi majburiyatlar keltirilgan:

1. Ishtirokchi davlatlar bolani jismoniy va ruhiy zo'ravonlikning, haqoratlash va suiiste'molliklar, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik yoki beparvolik bilan muomalada bo'lish, qo'pol muomala qilish yoki otaona, qonuniy vasiylar, yoki bola haqida g'amxo'rlik qiluvchi har qanday boshqa shaxs tomonidan ekspluatatsiya qilish, jumladan, shahvoniy suiiste'molliklar sodir etishning har qanday shakllaridan himoyalash maqsadida jamiki zarur qonuniy, ma'muriy, ijtimoiy va ma'rifiy choratadbirlarni ko'radilar.

2. Bunday himoya choralari, zarurat tug'ilgan taqdirda, bola va uning haqida g'amxo'rlik ko'rsatayotgan shaxslarni lozim darajada qo'llabquvvatlash maqsadidagi ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish uchun samarali tartibrusumlarni, huningdek, bola bilan yuqorida ko'rsatilgan tarzda shafqatsizlarcha muomala qilish hollari munosabati bilan ogohlantirish, aniqlash hollari munosabati bilan ogohlantirish, aniqlash, xabar berish, qarab chiqish, tergov olib borish, davolash hamda shundan keyingi choralarni ko'rish zarurati tug'ilgan taqdirda, sud ishini qo'zg'atish uchun choratadbirlarni ham o'z ichiga oladi.

Konvensiyaning 32-moddasi bolalarni ekpluatatsiyadan himoya qilishga oid bo'lib, moddada belgilanishicha, ishtirokchidavlatlar bolaning iqtisodiy ekspluatatsiyadan hamda uning sog'lig'i uchun xavfxatar yetkazishi mumkin bo'lgan yoki ta'lim olishiga to'sqinlik qiladigan, yoxud sog'lig'i, jismoniy, aqliy, ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga zarar keltiradigan har qanday ishlardan himoya qilinish huquqini e'tirof etishlari, shuningdek ishtirokchidavlatlar ushbu moddaning amalga oshirilishini ta'minlash uchun qonuniy, ma'muriy va ijtimoiy, shuningdek, ta'lim sohasidagi choratadbirlarni ko'rishlari lozimligi belgilangan. Konvensiyaning 33-moddasida esa, ishtirokchidavlatlar tegishli xalqaro shartnomalarda belgilab qo'yilganidek, bolalarni giyohvandlik va psixotrop moddalarni g'ayriqonuniy ravishda iste'mol qilishdan himoya etish maqsadida zarur barcha choratadbirlarni, jumladan, qonuniy, ma'muriy va ijtimoiy, shuningdek, ta'lim sohasidagi choralarni hamda anna shunday moddalarni g'ayriqonuniy ravishda ishlab chiqarishda va ularni sotishda bolalardan foydalanishga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rishlari shartligi ko'rsatib o'tilgan.

Shu bilan birga bolalarni har qanday jinsiy zo'ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan normalar Konvensiyaning 34-moddasida belgilangan bo'lib, unga ko'ra ishtirokchi davlatlar bolani undan shahvoniy maqsadlarda foydalanish va shahvoniy buzishning barcha shakllaridan himoya qilish majburiyatini o'z zimmalariga oladilar. Ana shu maqsadlarda ishtirokchi davlatlar, jumladan, quyidagi holatlarning oldini olish uchun milliy, ikki tomonlama va ko'p tomonlama barcha zarur choratadbirlarni ko'radilar:

a) bolani har qanday g'ayriqonuniy ravishdagi shahvoniy faoliyatga tortish va majburlash; b) bolalardan fohishabozlik yoki g'ayriqonuniy ravishdagi barcha shahvoniy maqsadlarda foydalanish; v) bolalardan pornografiya va pornografiya materiallari tayyorlash maqsadlarida foydalanish. Ushbu moddaning uzviy davomi sifatida 35-moddada ishtirokchidavlatlar bolalarni o'g'irlash, sotish yoki ularni har qanday

maqsadlarda va har qanday shakllarda kontrabanda qilishning oldini olish uchun milliy, ikki tomonlama va ko'p tomonlama barcha zarur choratadbirlarni ko'rishlari shartligi belgilangan.

Konvensiyaning 36-moddasi bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan umumiylik ahamiyatiga ega norma hisoblanib, unda ishtirokchidavlatlar bolani uning farovonligiga oid har qanday jihatdan zarar yetkazadigan foydalanishning barcha boshqa shakllaridan himoya qilishlari shartligi keltirilgan.

Shuningdek BMT ixtisoslashgan tashkilotlari hujjatlari: YUNESKO hujjatlari sifatida 1960-yildagi Ta'lim sohasida kamsitishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyani ham misol qilib keltirishimiz mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan xalqaro huquq normalari mustaqillikka erishgan ilk davrdayoq milliy qonunchilikka joriy qilina boshladi. Jumladan, butun dunyoda "Bola huquqlari Konstitutsiyasi" deb nom olgan BMT tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya mamlakatimiz parlamenti tomonidan 1992-yil 9-dekabrda ratifikatsiya qilingan. Bola huquqlari sohasida O'zbekiston Respublikasi ratifikatsiya qilgan xalqaro hujjatlar va bu sohadagi ayrim muhim milliy huquqiy hujjatlarni alohida jadvalda keltirish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya.
2. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga bolalarning qurolli mojarolarga jalb qilinishi to'g'risidagi Fakultativ protokol.
3. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga bolalar savdosi, bola fohishabozligi va bola pornografiyasi to'g'risidagi Fakultativ protokol.
4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining balog'atga etmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari ("Pekin qoidalari").
5. Birlashgan Millatlar Tashkilotining balog'atga etmagan bolalar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan dasturiy prinsiplari ("Ar-Riyod dasturiy prinsiplari").
6. Birlashgan Millatlar Tashkilotining qamoqda saqlash bilan bog'liq bo'lmagan choralarga doir minimal standart qoidalari ("Tokio qoidalari").
7. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ozodlikdan mahrum etilgan balog'atga etmagan bolalarni himoya qilishga doir qoidalar.

Xulosa qilib aytganda, bola huquqlariga oid xalqaro hujjatlarning klassifikatsiyasi shuni ko'rsatmoqdaki, birinchidan, bola huquqlari sohasidagi xalqaro hujjatlarning mazmun-mohiyatini to'g'ri tushunishga yordam bersa, ikkinchidan, bola huquqlari sohasidagi xalqaro huquqiy baza, ham universal miqyosda, ham mintaqaviy miqyosda rivojlanib borayotganligini, ammo, bu rivojlanish barcha mintaqalarda ham bir xil ketmayotganligi to'g'risidagi manzarani ko'rsatib beradi. Shu bilan birga, turli mintaqalardagi davlatlarning siyosiy, iqtisodiy tuzumidagi farqlar, ularning diniy va madaniy xilma xilligi kabi omillar davlatlarning bu sohadagi mintaqaviy integratsiyasiga ta'sir qiluvchi omillar ekanligini tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Neale, B. And C. Smart. (1997). "Experiments with Parenthood?" Journal of Sociology, 38 (2), 201-219.
2. Yhoga zaw of persons//Rwading in African Zaw.<http://books.google.co.uz>.

2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga sharhlar. –Toshkent. Adolat, 1999. -80 b.
3. Dunyoda bolalarning xolati // BMTning maxsus sessiyasidagi ma'ruza, 2001 www.un.org. www.unicef.org
4. Ganley, A. L., & Schechter, S. (1996). Domestic violence: A national curriculum for children's protective services. San Francisco, CA: Family Violence Prevention Fund. sciencedirect.com.
5. "Ўзбекистонда болаларни нолайиқ муносабатдан муҳофаза қилиш тизими" тренинга материаллари асосида. Save the Children (UK), 2003.
6. Fortson B, Kleven J, Merrick M, Gilbert L, Alexander S. (2016). Preventing Child Abuse and Neglect: A Technical Package for Policy, Norm, and Programmatic Activities. Atlanta, GA: National Center for Injury Prevention and Control, Centers for Disease Control and Prevention.
7. Juvonen, J.; Graham, S. (2014). "Bullying in Schools: The Power of Bullies and the Plight of Victims". Annual Review of Psychology. 65:159– 85. doi: (https://stopbullyingnow.hrsa.gov/HHS_PSA/pdfs/SBN_Tip_6.pdf) (PDF) on March 4, 2011. Retrieved 2013-10-28. 13. Limber, S. P., Olweus, D., & Wang, W. (November, 2012). What we are learning about bullying: trends in bullying over 5 years. Paper presented at the meeting of the International Bullying Prevention Association. Kansas City, MO.